

MAVJUD IZOHLI LUG‘ATLARDAGI “KAMSITISH” SEMALI SO‘ZLAR TAVSIFLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Qaxramonova Sevara Qaxramonovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

E-mail: qahramonovasevara5@gmail.com tel: 97 385 64 01

B. R. Mengliyev

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori taqrizi asosida

Annotatsiya

Joriy izohli lug‘atlarda muayyan shaxsni kamsitish, uni haqorat qilishni ifodalovchi til birliklari bosh so‘z vazifasida ham, shu so‘z ishtirokidagi barqaror birikmalar shaklida ham keltirilgan. Ularning aksariyati uslubiy belgini ko‘rsatuvchi maxsus pometalari bilan berilgan. Shuningdek, ularning izohida “haqorat qilishni ifodalaydi”, “so‘kinishni bildiradi” kabi jumlar vositasida bunga aniqlik kiritilgan. Bu kabi izohlar “kamsitish” semasi til birligining bosh ma’nosida yoki hosila ma’nosida bo‘lishidan qat’i nazar lug‘at maqolasiga kiritilganligini ta’kidlash lozim. Shuningdek, muloqot vaziyati, til egalarining tushunishida haqorat va kamsitish ma’nosini ifodalaydigan, ammo lug‘at maqolasining izoh qismida bu haqida ma’lumot berilmagan va, tabiiyki, maxsus pometa bilan ajratilmagan til birliklari ham mavjudligini ta’kidlash lozim.

Kalit so‘zlar: Kamsitish, haqorat qilish, barqaror birikmalar, pometa, so‘kinish, lug‘at maqolasi, izohli lug‘atlar.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОПИСАНИЙ СЕМАНТИЧЕСКИХ СЛОВ “ДИСКРИМИНАЦИЯ” В СУЩЕСТВУЮЩИХ ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ

Аннотация

В современных толковых словарях единицы языка, выражающие унижение, оскорбление конкретного человека, представлены как в функции заглавного слова, так и в виде устойчивых сочетаний с участием этого слова. Многие из них снабжены специальными пометками, обозначающими стилистический знак. Их комментарий также проясняет это с помощью таких предложений, как “выражает оскорбление”, “словесное грубость”. Следует отметить, что подобные сноски включаются в словарную статью независимо от того, является ли семантика “дискриминация” главным значением языковой единицы или производным значением. Следует также отметить, что существуют также языковые единицы, выражающие в понимании

носителей языка значение оскорбления и унижения, но о которых не сообщается в сноске словарной статьи и, естественно, не выделяются специальной пометкой.

Ключевые слова: унижение, оскорбление, устойчивые сочетания, помета, словесное грубость, словарная статья, толковые словари.

ISSUES OF IMPROVING THE DESCRIPTIONS OF THE SEMANTIC WORDS “DISCRIMINATION” IN EXISTING EXPLANATORY DICTIONARIES

Annotation

In modern explanatory dictionaries, units of language expressing humiliation, insult to a particular person are represented both in the function of the capital word and in the form of stable combinations involving this word. Many of them are provided with special markings indicating a stylistic sign. Their comment also clarifies this with sentences such as “expresses insult”, “verbal rudeness”. It should be noted that such footnotes are included in the dictionary entry regardless of whether the semantics of “discrimination” is the main meaning of the linguistic unit or a derivative meaning. It should also be noted that there are also linguistic units that express the meaning of insult and humiliation in the understanding of native speakers, but which are not reported in the footnote of the dictionary entry and, of course, are not marked with a special mark.

Keywords: humiliation, insult, stable combinations, litter, verbal rudeness, dictionary entry, explanatory dictionaries.

Kirish

O‘zbek tili leksik qatlamining katta qismini qamrab oluvchi, adabiy til me‘yorlarini, shuningdek, leksik birliklarning qo‘llanish holatini ko‘rsatib beruvchi izohli lug‘atlar hozirgi kungacha bir necha marta nashr etildi. Jumladan, 1981-yilda ikki tomli, 2006-2008-yillarda 5 jildli, 2022-yilda 6 jildli izohli lug‘atlar nashr etildi. 1981-yilgi lug‘at yaratilishi uchun shu davrgacha tayyorlangan o‘nlab tarjima, terminologik lug‘atlar asos vazifasini bajargan bo‘lsa, 2006-2008-yillarda nashr etilgan besh jildli izohli lug‘atning yaratilishida esa 1981-yilgi ikki tomli lug‘at muhim o‘rin tutdi. Ta’kidlash lozimki, 2006-2008-yillarda nashr etilgan izohli lug‘at garchi ikki toli lug‘at manbalaridan foydalanib tayyorlangan bo‘lsa-da, uning to‘ldirilgan yoki yangi nashri emas edi. Bu besh jildli lug‘at 1981-yildan keyin “ro‘y bergan leksikografik o‘zgarishlar aks ettirilgan mutlaqo yangi lug‘at”[1] edi. Ammo 1981-yildan 2006-yilgacha bo‘lgan oraliq davrda mamlakatimiz mustaqillikka erishdi va bu ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ilmiy va iqtisodiy sohalarda katta o‘zgarishlarga asos bo‘ldi. Bu o‘zbek tili

leksikasida ham o'z aksini topmay qolmadi. Natijada, ikki izohli lug'at yaratilishi oralig'ida, aniqrog'i 2001-yilda "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati" yaratildi. Mazkur lug'atning yaratilish sabablari sifatida "sovet davrida yuritilgan til siyosati ta'sirida vujudga kelgan "umumiy leksik fond" deb ataluvchi leksik birliklar tarkibida juda katta o'zgarishlar bo'lganligi, qolaversa, istiqlool sharoitida yangidan yangi so'zlar kirib kelishi natijasida 1981-yilda nashr qilingan va sovet til siyosatini o'zida to'la namoyon qilgan ikki tomli lug'at ma'naviy jihatdan eskirganligi"[2:3]ni keltirish mumkin edi. 2001-yilda nashr qilingan va faol so'zlarni qamrab olgan lug'at ham besh jildli izohli lug'at uchun maba bo'lib xizmat qilganligi shubhasiz. Qolaversa, faol so'zlar lug'ati besh jildli lug'atni yaratish uzoq vaqt talab qilganligi uchun bu lug'at tayyorlangunga qadar "o'zbek tiliga mustaqillik sharoitida kirib kelgan so'zlarning ma'nosini bilishga aholi o'rtasida qiziqis katta"[2:3] ekanligini hisobga olgan holda keng jamoatchilik hukmiga havola qilinganligi mualliflar tomonidan ta'kidlangan edi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Qayd etish lozimki, joriy izohli lug'atlar keng foydalanuvchilar uchun ham, tilshunoslar uchun ham bebaho manba vazifasini bajaradi. Shu tufayli bu tipdagi lug'atlar muntazam takomillashtirilib borilishi, yangi ma'lumotlar bilan boyitilishi talab etiladi. Aynan shunday maqsadlar bilan 2006-2008-yillarda nashr etilgan besh jildli izohli lug'at 2020-yilda qayta nashr etildi. Shuningdek, "2020-yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" kirill yozuvida 5 jilddan iborat bo'lgan bo'lsa, 2022-yilgi nashr 6 jilddan iborat va unga 5000 ga yaqin yangi so'z (jami 80 mingdan ortiq so'z) kiritilgan"[3] edi. Ma'lum bo'ladiki, mavjud izohli lug'atlar vaqt o'tishi bilan leksikaning o'zgarishi bilan uyg'un tarzda takomillashtirib boriladi. Shu ma'noda izohli lug'atlarga kiritilgan so'zlarni muayyan leksik-semantik guruhlariga ajratib tahlil qilish, ular uchun berilgan lug'at maqolalarini tilshunoslik va ijtimoiy hayotning zamonaviy tendensiyalariga moslashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Joriy izohli lug'atlarda muayyan shaxsni kamsitish, uni haqorat qilishni ifodalovchi til birliklari bosh so'z vazifasida ham, shu so'z ishtirokidagi barqaror birikmalar shaklida ham keltirilgan. Ularning aksariyati uslubiy belgini ko'rsatuvchi maxsus pometalalar bilan berilgan. Shuningdek, ularning izohida "haqorat qilishni ifodalaydi", "so'kinishni bildiradi" kabi jumlar vositasida bunga aniqlik kiritilgan. Bu kabi izohlar "kamsitish" semasi til birligining bosh ma'nosida yoki hosila ma'nosida bo'lishidan qat'i nazar lug'at maqolasiga kiritilganligini ta'kidlash lozim. Shuningdek, muloqot vaziyati, til egalarining tushunishida haqorat va kamsitish ma'nosini ifodalaydigan, ammo lug'at maqolasining izoh qismida bu haqida ma'lumot berilmagan va, tabiiyki, maxsus pometa bilan ajratilmagan til birliklari ham mavjudligini ta'kidlash lozim. Aynan mana shunday til birliklarini aniqlash "kamsitish" semali so'zlarni ajratish, ularni tizimlashtirish orqali amalga oshadi. Chunki izohli lug'atlarda keltirilgan maqolalarda bu kabi jihatlarga e'tibor qaratish aynan "kamsitish" leksik-semantik

guruhini qamrab oluvchi lug‘atlarning ham mukammal bo‘lishiga xizmat qiladi. Zero, munozarali vaziyatlarda izohli lug‘atlarda “kamsitish” semasiga ishora qilinmagan, ammo shunday ma’nosi mavjud bo‘lgan til birliklari haqida xulosa chiqarish mavhumliklarga, noaniqliklarga sabab bo‘ladi. Masalan, *jirafa* o‘zbekcha jonli nutqda bo‘yi uzun insonlarga nisbatan qo‘llanuvchi eng “mashhur” so‘z hisoblanadi. Shuningdek, muayyan fikrni kechroq anglab yetuvchi shaxslarga nisbatan ham shu so‘zdan faol foydalaniladi. Ammo izohli lug‘atlarning hammasida bu so‘z uchun quyidagi lug‘at maqolasi keltirilgan:

“**JIRAF**A [fr.giraffe] Tropik mamlakatlarda yashaydigan uzun bo‘yinli o‘txo‘r hayvon. *Afrika butazorlarida hayvon ovlovchilar bir kuni bitta jirafa tutib, qafasga solishdi. Fan va turmush*”[4:660].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Vaholanki, hayvonlarning ba’zi xususiyatlariga ko‘ra shaxsni shu hayvon nomi bilan atash haqorat, kamsitish, obro‘ni yerga urishning ifodasi ekanligi izohli lug‘atlarda batafsil yoritilgan. Bunda mualliflar so‘zlarning jonli nutqda qo‘llanish chastotasiga tayangan bo‘lishlari ham mumkin. Izohli lug‘at hozirgi o‘zbek tilida keng qo‘llanadigan so‘z va birikmalarni, shuningdek, fan-texnika, san‘at va madaniyatga oid terminlarni, dialektizmlar, arxaizm va tarixiy so‘zlarni qamrab olishi, ularning bosh va hosila ma’nolarini izohlashi hisobga olinsa, yuqorida keltirilgan so‘zning ko‘chma ma’noda kamsitish, haqoratni ifodalashi ham lug‘at maqolasida keltirilishi manbaning ahamiyatini oshirgan bo‘lardi, nazarimizda. Zero, “lug‘at o‘zbek tilshunosligi va turkiyshunoslik bo‘yicha mutaxassislar, tarjimonlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, oliy ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari va talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi uchun mo‘ljallangan”[5:4] ekan, bunda lingvistik ekspertiza mutaxassislari ham undan asosiy lingvistik manba sifatida foydalanishi shubhasiz. Shu tufayli haqorat, kamsitishni ifodalovchi til birliklarining ajratilishi va tizimlashtirilishi ekspert-lingvist duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini oladi, ularning to‘g‘ri xulosaga kelishlariga yordam beradi. Qolaversa, hayvon nomlari bilan bog‘liq boshqa lug‘at maqolalarida so‘zning shaxsga nisbatan qo‘llanishida kamsitish, haqorat ma’nolari mavjudligi qayd etilganligi ham fikrimizni dalillaydi. Masalan, “eshak” so‘zining bosh va haqorat va kamsitish ifodalovchi ma’nolari quyidagicha izohlangan:

“**ESHAK** 1 Yakka tuyoqlilarga mansub, quloqlari uzun, sutemizuvchi, otdan kichik ish hayvoni. *Eshak minganning oyog‘i tinmas.* Maqol. – *Boboqul ham yuklarini eshagiga ortib olgan edi.* S.Anorboyev, Oqsoy.

2 ko‘chma Befahm, hech narsaga qiziqmaydigan odam haqida. *Ishqi yo‘q – eshak, dardi yo‘q – kesak.* Maqol.

3 (talaffuzda ko‘pincha **eshshak**) Shu hayvonga nisbatli haqoratni bildiradi...” [4:81].

Keltirilgan lug‘at maqolasida so‘zning ikkinchi va uchinchi ma‘nosi shaxsga nisbatan qo‘llanganda kamsitish, haqorat ma‘nosiga ega bo‘lishi dalillangan. Shuni ta’kidlash lozimki, so‘zning ikkinchi ma‘nosida maxsus uslubiy belgi qo‘yilmagan, va haqorat ma‘nosini ifodalashi ham bayon qilinmagan. Ammo so‘zning haqorat yoki kamsitishni ifodalovchi vosita sifatida huquqiy jihatdan baholanishi uchun muayyan talablar mavjud ekanligini ham unutmaslik lozim. Garchi huquqbuzarliklarning aksariyati nutqiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lsa-da, shaxsni kamsitish, haqorat qilish va obro‘cini yerga urish xatti-harakati bevosita lingvistik vositalar yordamida amalga oshiriladi. “Kamsitish” semali so‘zlarning nutqiy jarayonda qo‘llanishi va huquqbuzarlik sifatida baholanishi ikki bir-biridan farqli jihatlar sifatida baholanadi. Zero, shaxs “kamsitish” leksik-semantik guruhidagi so‘zlar vositasida haqorat qilingandan keyin huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlarga murojaat qilsagina huquqbuzarlik holati qayd etilishi va aybdorga nisbatan tegishli jazo choralari qo‘llanishi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda “sud tilshunosligi”, “lingvistik ekspertiza” singari mamlakatimizda nisbatan yangi hisoblanadigan sohalarga ehtiyoj tug‘ilishi tabiiy. Jumladan, A.M.Grachevning quyidagi fikrlari “sud lingvistikasi”ning tarkibiy qismlari haqida muayyan tasavvur hosil qilishga imkon beradi: “a) huquqiy maqsadlarda matnni tahlil qilish; b) sud-lingvistik ekspertizalarini tayyorlash; d) jinoiy submadaniyatning sotsiolingvistik jihatlarini tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslik bo‘limi”[6:26-27]. Anglashiladiki, shaxsning kamsitilishi, obro‘yiga putur yetishiga sabab bo‘luvchi leksik-semantik guruhning ajratilishi va ularning leksikografik xususiyatlari takomillashtirilishi tilshunoslikning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli jonli nutqda “kamsitish” semasiga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan til birliklari uchun keltirilgan lug‘at maqolalari qo‘shimcha izoh, zarurat bo‘lganda uslubiy belgi ko‘rsatuvchi pometa bilan ajratilishi maqsadga muvofiq.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Keltirilgan *jirafa* so‘zi bilan bo‘lganidek, *ayiq*, *anakonda*, *maymun*, *sigir*, *buzoq*, *begemot* kabi so‘zlardan ham garchi jonli nutqda haqorat, kamsitish ma‘nolarini ifodalashda foydalanilsa ham, ularning izohida bu haqida aytilmagan. *Buzoq* so‘zi ham tarkibiga kiradigan “ammamning buzog‘i” iborasi *amma* so‘zi izohida berilganligi uchun shu so‘zga havola qilingan. Lekin *buzoq* so‘zining o‘zini ham shaxsga nisbatan qo‘llash uning obro‘yini yerga urishga olib kelishi o‘zbek tilidagi matnlar tahlilida ko‘zga tashlanadi. Bu so‘z quyidagi badiiy asardan olingan parchada aynan shunday ma‘noda qo‘llangan:

– *Bor ekansan-ku, domla. – Lekin, uka, - gapida davom etdi Fayzulla... Bizga butun mahallaning yuzini yerga qaratadigan tirradi buzog kerak emas.* (A.Yo‘ldoshev. Bandi (hikoya)).

Mazkur misolda *buzoq* so‘zi shaxsga nisbatan qo‘llangan va uning salbiy bo‘yoqqa ega ekanligini “tirraqi” so‘zi ham muhim o‘rin tutgan. Ayana shu so‘z *buzoq* so‘zidagi “kamsitish”

semasini bo‘rttirgan, uning salbiy bo‘yog‘ini oshirgan, deyish mumkin. Zero, *tirraqi* so‘zining “hadeb tirraqilayveradigan, ichketar; oriq; o‘laksa, nimjon”[7:296] ma’nolari mavjudligi ham fikrimizni dalillaydi. Shuningdek *tirraqi* so‘zining salbiy ma’noni bo‘rttiruvchi sifatida *buzoq* so‘ziga xususiy birikuvchi ekanligi tilimizda “Tirraqi buzoq podani bulg‘ar” maqolining mavjudligi ham dalillaydi. Bu maqolning “Bir yomonning bo‘lmag‘ur, nopok ishi unga aloqador boshqalarga ham ta’sir etishi, boshqalarni ham bulg‘ashini bildiradi” tarzida sharhlanishi esa *buzoq* so‘zining shaxsga nisbatan kamsitish ma’nosida qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatib beradi. Shu sababli bu so‘z uchun tayyorlangan lug‘at maqolasi “kamsitish” semasini ifodalovchi qism bilan boyitilishi lozim. Nazarimizda, izohli lug‘atlarda bu so‘z uchun tayyorlangan lug‘at maqolasi barqaror birikmalarni hisobga olmaganda quyidagicha ko‘rinishda bo‘lishi maqsadga muvofiq:

“BUZOQ 1 Sigirning bolasi. *Yaxshi buzoq ikki onani emadi.* Maqol. *Sigirning sutida buzoqning haqi bor.* Maqol. – *Podadan adashgan buzoqqa o‘xshab, duch kelgan eshikka boshingni tiqaverasanmi?* Oybek. Tanlangan asarlar. *Tong otganda, apil-tapil sigirini sog‘ishga borsa, sigiri ham, buzoq ham yo‘q.* “Mushtim” **2** Shu hayvonga nisbatli haqoratni bildiradi”.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ta’kidlash lozimki, hayvon va uning giponimlari orqali shaxsga murojaat qilish har doim ham kamsitish va haqorat qilishni ifodalayvermaydi. Ba’zi o‘rinlarda hayvon nomlari e’tirof, maqtovni ifodalashi ham mumkin. Masalan, *burgut, lochin, sher, bo‘ri* kabi so‘zlar o‘zbekcha matnlarda shaxsga nisbatan qo‘llanganda mardlik, botirlik va qahramonlikni ifodalaydi. Garchi lug‘at maqolasining joriy izohli lug‘atlardagi izohida ham uning shaxsga nisbatan qo‘llanishi mumkinligiga ishora bo‘lsa-da, haqorat va kamsitish ma’nosiga egaligi ochiq bayon qilinmagan. “Shu hayvonga nisbatli haqoratni bildiradi” qismi bilan lug‘at maqolasining boyitilishi kelgusida so‘z qo‘llash bilan bog‘liq munozarali o‘rinlarda lingvist-ekspertga vaziyat yuzasidan mukammal xulosa chiqarishda ko‘maklashishi shubhasiz. Xuddi shunday haqorat va kamsitishni ifodalovchi qismlar bilan *ayiq, anakonda, maymun, sigir, begemot* kabi so‘zlarning izohi ham to‘ldirilishi izohli lug‘atning nafaqat ilmiy, balki huquqiy nuqtayi nazardan ham qiymatini oshiradi, uning mukammal manba bo‘lib xizmat qilishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/O‘zbek_tilining_izohli_lug‘ati (2006–2008)
2. Hojiyev A. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati, – Toshkent: Sharq NMAK, 2001. – 336 b.
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/02/izohli-lugat/>

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 6 ildlik, 2-jild, – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – 1036 b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 6 ildlik, 1-jild, – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – 964 b.
6. Грачев М. А. Современные проблемы лингвокриминалистики как науки // Вестник Череповецкого государственного университета. 2015. № 1. – С.26-27.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 6 ildlik, 5-jild, – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – 720 b.